



## Uy-joy uchun subsidiya: muhim 10 ta savolga javob

2-betda o'qing



## Firibgarning siri ochildi

...Axborot texnologiyalari tufayli ta'bir joiz bo'lsa, mushkulimiz oson, uzog'imiz yaqin bo'lmoqda. Ammo ana shu imkoniyatlardan noto'g'ri foydalanib, odamlarni chuv tushirayotganlar ham afsuski, uchrab turibdi...

7-betda o'qing

# INSON va qonun

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

2023-YIL  
10-OKTABR  
SESHANBA

No 40 (1400)

[www.hudud24.uz](http://www.hudud24.uz)

@adolat\_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



Yaqinda Turkiyaning Anqara shahrida Turkiy davlatlar ishtirokida xalqaro tadbir bo'lib o'tdi. Turkiya mezbonlik qilgan tadbirda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikasi adliya vazirlari hamda Notarial palata rahbarlari ishtirok etdilar.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri A.Toshqulov, O'zbekiston Notarial palatasi raisi D. Ashurov va Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius K. Jaloliddinovlardan iborat bo'lgan O'zbekiston delegatsiyasi Turkiya Adliya vazirligiga tashrif buyurdi.

Delegatsiyani Turkiya adliya vaziri Yilmaz Tunch qabul qildi va suhbatlashdi. Suhbat davomida ikki davlat vazirliklari o'rtasida fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatish, norma ijodkorligi sohasida mutaxassislarni tayyorlash va o'qitish, shuningdek, notariat sohasida hamkorlik qilish, istiqboldagi reja va takliflar haqida so'z bordi.

## TURK DUNYOSI NOTARIUSLARI UYUSHMASI TUZILDI



Mehmon davlatlar vakillari Anitqabirga tashrif buyurib, Turkiyaning birinchi prezidenti Mustafu Kamol Otaturk poyiga gulchambarlar qo'ydilar. Shundan so'ng turkiy davlatlar uchun muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan uchrashuvning asosiy qismi boshlandi. Tadbir davomida barcha mehmon davlatlar Notarial palatalari rahbarlari, jumladan, O'zbekiston Notarial palatasi raisi D. Ashurov ma'ruza qildi. Mehmon davlatlar adliya vazirlari ham so'zga chiqib, o'z fikr va mulohazalarini bildirdilar.

Tarixiy voqea yuz berdi: Turk dunyosi Notariuslar uyushmasi (birligi) tuzilishi haqidagi Anglashuv Memorandumi imzolandi.

Endilikda kelishuvga a'zo bo'lgan davlatlar o'rtasida qator yangiliklar

yaratiladi. Ya'ni, kelgusida Turkiyada yoki Bokuda tasdiqlangan ishonchnoma bilan Toshkentda notarial harakatni amalga oshirish uchun ishonchnomaning asl nusxasi kerak bo'lmaydi. Uyushmaga a'zo davlatlar notarial tizimlari integratsiya qilinadi va ushbu davlatlar notariuslari uchun hujjatga apostil qo'yish, hujjatni tekshirish uchun hujjatdagi notariuslarni internet orqali qidirib topib, murojaat qilish va vaqt yo'qotish kabi muammolar bo'lmaydi.

- Biz notariuslarni ushbu yangilik judayam sevintirdi, chunki notarial harakat bajarayotganimizda nafaqat biz uchun, balki fuqarolar uchun ham qator yengilliklar yaratadi, - deydi anjuman ishtirokchisi, notarius Kamoliddin Jaloliddinov.

Joriy yil 6-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri Akbar Toshqulovning O'zbekiston Respublikasining Anqara shahridagi elchixonasida Boyazid Yildirim nomidagi Anqara universiteti rektori professor Ali Jengiz Ko'seo'g'li bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

## ADLIYA VAZIRI AKBAR TOSHQULOV ANQARA UNIVERSITETI REKTORI ALI JENGIZ KO'SEO'G'LI BILAN UCHRASHDI



Uchrashuvda tomonlar ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida yuridik ta'lim yo'nalishida samarali hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilganini ta'kidlab, ushbu hamkorlikni yanada chuqurlashtirish lozim ekanini aytib o'tdi.

Toshkent davlat yuridik universiteti va Boyazid Yildirim nomidagi Anqara universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolanganligi hamda hozirda TDYUda o'zbek-turk huquqiy hamkorlik markazi samarali faoliyat yuritayotganligi, o'quv uslubiy va ilmiy yo'nalishda aniq maqsadlar belgilab olinganligi, xususan, universitetlar o'rtasida qo'shma magistraturani joriy qilish rejalashtirilayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida tomonlar yuridik ta'lim sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirishga kelishib oldilar.

## 2 MOHIYAT

1. UY-JOY UCHUN  
SUBSIDIYA NIMA?

Ipoteka krediti asosida kvartira sotib olish yoki uy (hovli) qurish va rekonstruksiya qilishga boshlang'ich to'lov va foizlarning bir qismini to'lab berish uchun ajratiladigan mablag'.

2. OLIŞ UCHUN  
KIMGA MUROJAAT QILISH  
KERAK?

Subsidiya olish uchun istalgan davlat xizmatlari markazi yoki YIDXP orqali ariza berish mumkin.

Bunda anketa-ariza elektron tarzda to'ldiriladi va mazkur xizmat mutlaq bepul.

2023-yil uchun subsidiya ajratishga doir arizalar 2023-yil 1-maydan 2023-yil 1-dekabr gacha qabul qilinadi.

Biroq joriy yil uchun ajratilgan subsidiya tugaganida ariza qabul qilish ham to'xtatiladi.

Arizadagi ma'lumotlar soliq organlari, tibbiyot birlashmasi, hokimliklar, oila va xotin-qizlar bo'limlari tomonidan tekshirib ko'riladi.

Arizalarni ko'rib chiqish uchun hokim o'rinbosari boshchiligidagi komissiya tuziladi.

3. KIMLARGA  
BERILADI?

Subsidiya daromadi yuqori bo'lmagan fuqarolar yoki oilalarga beriladi.

Bunday toifadagi fuqarolar yoki oilalarning daromadi quyidagicha bo'lishi kerak:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda MHTEKMning 2,7 baravaridan (2 million 646 ming so'mdan) 9,2 baravarigacha (9 million 16 ming so'mgacha);

Toshkent shahrida esa MHTEKMning 2,7 baravaridan (2 million 646 ming so'mdan) 9,2 baravarigacha (9 million 16 ming so'mgacha).

Fuqarolar subsidiya olishda birgalikda qarz oluvchi sifatida ular bilan birga yashamayotgan va yaqin qarindoshi bo'lmagan boshqa shaxslarni ham jalb qilishi mumkin.

Masalan, fuqaroning oyligi 1 million bo'lsa, u subsidiya olishga yetmaydi, shunda fuqaro boshqa uyda yashayotgan xolasi, ammasi, tog'asi va boshqalar bilan birga subsidiya olishi mumkin.



– Subsidiyaga oylik daromad yetmasa boshqaning oyligini qo'shib hisoblasa bo'ladimi? Boshlang'ich to'lov uchun qancha subsidiya beriladi? Kimga qanday murojaat qilish kerak? Propiskasi yo'q joydan subsidiya olsa bo'ladimi? Ikkilamchi uylarga-chi?



# UY-JOY UCHUN SUBSIDIYA: muhim 10 ta savolga javob

4. AJRATISHDA  
NIMALARGA E'TIBOR  
QARATILADI?

Arizachilarga subsidiya ajratish masalasi quyidagi ijtimoiy mezonlar asosida qo'yilgan ballar asosida aniqlanadi. Ijtimoiy mezonlar sifatida ariza beruvchining daromad miqdori, yashab kelayotgan uyining holati (ijara, tekin turar joy), ijtimoiy himoyaga muhtojligi, sog'lig'ining holati belgilangan.

Ijtimoiy mezonlar asosida 30 (jami 50 baldan) va undan yuqori ball to'plaganlarga subsidiya beriladi.


5. QAYSI HOLATLARDA  
BERILMAYDI?

Quyidagi hollarda subsidiya ajratish rad etiladi:

- arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar ijtimoiy mezonlarga mos kelmaganda;
- ma'lumotlar noto'g'ri yoki soxta bo'lganda;
- ilgari imtiyozli ipoteka kreditlari asosida kvartira yoki uy-joy hamda subsidiya olganlar ariza berganida;
- joriy yilda hudud uchun ajratiladigan subsidiya soni tugaganda;
- ariza beruvchi va yoki oilaning o'rtacha oylik daromadi yuqorida ko'rsatilgan daromaddan ko'p yoki kam bo'lganida.

Boshqa asoslar bilan rad etish mumkin emas, ariza rad etilganidan so'ng yana qayta murojaat qilish mumkin.

Subsidiya oluvchilar ko'p bo'lganda, dastlab birinchi ariza berganlarga subsidiya ajratiladi.

6. XABARNOMASI  
QANCHA VAQT AMAL  
QILADI?

Subsidiya berish haqidagi xabarnoma 4 oy muddat amal qiladi, bu degani xabarnoma chiqqanidan boshlab 4 oy ichida subsidiyaga uy sotadigan firma topib, uyni sotib olish kerak.

7. BOSHLANG'ICH TO'LOV VA  
KREDIT FOIZI QANCHA?

Boshlang'ich to'lov uy-joy narxining kamida 15 foizini tashkil qiladi. Boshlang'ich to'lov uchun davlat tomonidan qaytarilmaydigan 33 million so'mlik subsidiya beriladi.

Kredit foizi bank tomonidan mustaqil belgilanadi, bugungi kunda aktsiyat banklarda 18 foiz.

Davlat tomonidan esa 5 yil davomida kreditning 10 foizdan ko'p qismi qoplab beriladi. Masalan, kredit 18 foiz bo'lsa, uning 8 foizi 5 yil davomida davlat tomonidan qoplanadi.

8. KREDIT MIQDORI  
CHEKLANGANMI?


Ha, subsidiya doirasida kredit Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 327 million 250 ming so'mgacha, Toshkent shahrida esa 416 million 500 ming so'mgacha beriladi.

Uyning narxi yuqoridagi narxdan qimmat bo'lsa ham subsidiya beriladi, biroq bu ortiqcha mablag'ni fuqaroning o'zi to'lashi kerak.

9. IKKILAMCHI UYLARGA  
HAM BERILADIMI?

Yo'q, subsidiya yangi qurilgan ("novostroyka") 4 va undan ko'p qavatli yoki fuqaroga ajratilgan yerda qurilgan uy (hovli)lar hamda uni rekonstruksiya qilish uchun ajratiladi.

Subsidiya "remontsiz" qora suvoqdagi uylarga ham ajratiladi, faqat sharti uy xonalarga bo'lingan va "remontga" tayyor bo'lishi kerak.

10. PROPISKASI  
BO'LMAGAN JOYDAN OLSA  
BO'LADIMI?

Yo'q, subsidiya fuqaroning doimiy yashash joyi bo'yicha beriladi.

Toshkent shahrida doimiy yashaydigan fuqarolar Toshkent viloyatidan ham subsidiya asosida uy olishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ichida yashaydiganlar bir tumanidan boshqa tumandan subsidiya olishi mumkin. Masalan, Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida yashayotgan shaxs Samarqand viloyati Samarqand shahridan subsidiya olishi mumkin. Biroq Toshkentdan yoki Jizzaxdan ololmaydi.

Shuningdek, subsidiyaga olingan uy krediti va uning foizi to'lovlariga yo'naltirilgan MHTEKMning 80 baravarigacha (78 million 400 ming so'mgacha) oylik ish haqi daromad solig'iga (12 foiz) tortilmaydi.

**Dilmurod RAJABOYEV,**  
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

☐ **To'qimachilik tolalaridan tayyorlangan mahsulotlar va boshqa totali materiallar har bir inson turmushining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi, masalan, kiyimlar, choyshablar va boshqa buyumlar doimiy ravishda, ya'ni kundalik foydalaniladigan buyumlar qatoriga kiradi.**

## KRIMINALISTIK EKSPERTIZA — JINOYATLARNI OCHISHDA MUHIM VOSITA

Totali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar kriminalistik ekspertizasi jinoyatlarni ochishda muhim qadam hisoblanadi. Hozirgi zamon texnologiyalari asosida, zamonaviy asbob-uskunalar orqali tolalarning bir-biridan farqini ajrata olish imkoniyatlari mavjud. Bu jarayon ko'pchilik tasavvur qilganidek oson emas, ancha murakkabdir.

Ayrim jinoyatlarni ochishda kriminalistik ekspertiza jarayonlarida aynan totali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar kriminalistik ekspertizasi o'tkaziladi. Masalan, mazkur sud ekspertizasi turi qotilliklarni, nomusga tegish, yo'l-transport hodisalari kabi jinoiy ishlarni tergov qilishda kiyim va tekshirilayotgan hodisa muhitini turli buyum-elementlarida qoluvchi to'qimachilik tolalarining qatlamli mikro izlarini tadqiq qilishda juda muhim o'rin tutadi.

Maksimal ekspertiza bilimlari asosida tergov qilinayotgan voqea bilan totali tabiatga ega bo'lgan obyektlar va ularning qoldiqlari o'rnatilgan o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi faktlarni aniqlash totali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarning kriminalistik ekspertizasining predmeti hisoblanadi. Ekspertiza predmeti jinoyat qurollari yoki transport vositalari qismlarining jabrlanuvchining kiyimi qismlari bilan o'zaro ta'sirlashish fakti hisoblanadi. Bunday hollarda, iz hosil qiluvchi obyektlarning yuzasidagi izlar, neft mahsulotlari va yonilg'i-moylash materiallari, lok-bo'yoq qoplamalari, tuproq va o'simlik qoldiqlarini aks ettiruvchi izlar ekspertiza tadqiqotlari olingan ma'lumotlardan foydalanilgan holda kompleks tarzda tekshirila-

di va namunalar olinadi.

Jinoyatchining kiyimidan qoldirilgan deb taxmin qilingan izlardagi alohida tolalarni tadqiq qilish jarayonida, jinoyatchining kiyimi qaysi obyektlar bilan ta'sirlashgani haqida axborot olinadi.

Totali tabiatga ega bo'lgan obyektlar ekspertizasini o'tkazish chog'ida turli-tuman vazifalar bajariladi. Gumon qilinuvchining kiyimida jabrlanuvchining kiyimi tolalari tarkibiga kiruvchi tolalar bilan bir xil bo'lgan mikrotolalarning mavjudligi, ushbu tolalarning lokalizatsiyasi (bir joydan topilishi) gumon qiluvchining taxminini inkor etish, jabrlanuvchining ko'rsatmalarini tasdiqlash uchun foydalanilishi mumkin.

Ekspertlik tadqiqotida kiyimlar qismlarining avval bir butunlikka tegishli ekani aniqlanadi. Masalan, qo'l-qoplarning bir juftlikka tegishli ekani, kamarning kurtkaga, mato parchasining muayyan matoga, ipi bilan uzilgan tugmaning muayyan kiyimga tegishli ekani aniqlanadi. Totali materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar ekspertizasida iplar, yigirilgan iplar, matolar, kiyim, noto'qima materiallar, arqonlar, kanop ip, yoki to'qilgan buyumlar, bog'ichlar, yongan kiyim qoldiqlari va shu kabi boshqa materiallar obyekt hisoblanadi.

Totali materiallarning kriminalistik ekspertizasi bo'yicha tadqiqotlar zamonaviy ilmiy-texnik baza orqali o'tkaziladi. Namuna uchun olingan tolalar 126 marta kattalashtirib ko'rsatuvchi, halqali diod lampali, yoritkichli "Olympus szx10" rususli, 200 marta kattalashtirib ko'rsatuvchi "Moticam" rususli yorug'lik mikroskopi ham-

da "Foster freeman" firmasining "Fx5" kabi tolalarni izlash uskunasi orqali tekshiriladi. Bu esa, tekshiruvni muvaffaqiyatli va to'laqonli o'tkazishga imkon beradi. Yuqori sezgir asbob-uskunalar qo'llanilishi ekspertlarga yanada yuqoriroq ilmiy asoslangan darajadagi vazifalarni bajarishga yordam beradi. Bu murakkab jarayonda o'ta sinchkovlik talab etiladi. Hozirgi vaqtda to'qimachilik tolalari tadqiqotining namunaviy uslubi va sxemasi ishlab chiqilgan. Namunalarda mazkur sxema asosida tekshiriladi.

Totali tabiatga ega bo'lgan obyektlar tasnifini bilish tergov uchun har bir holatda ulardan qaysi biri aшыoviy dalil bo'lib xizmat qila olishini aniqlash, ekspertlik tadqiqotining bevosita obyektlarini ajratish, ish bo'yicha izlanayotgan jinoyat hodisasining moddiy holati elementini aniqlashga katta yordam beradi.

Aшыoviy dalillar olinganda mazkur turdagi ekspertiza uchun belgilangan maxsus tavsiyalarga amal qilish zarur. Jabrlanuvchi yoki marhumning kiyimini tergovchi ishni tergov qilishni boshlagan zahoti olishi zarur. Gumon qilinuvchining kiyimi to'liq to'plamda olinadi. Daliliy aшыolarning olinishi va qadoqlanishi chog'ida jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi kiyimlarining predmetlari bir-biriga tegishiga, aшыoviy dalilni olish va qadoqlashni amalga oshirayotgan shaxslarning kiyimlariga tegishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Bitta shaxsga qarashli kiyimning alohida predmetlarining o'zaro bir-biriga tegishining oldini olish zarur. Kiyimning har bir qismini yaltiroq yuzali zich qog'ozga, kalkaga, sellofan yoki polietilen plenka yoki paketlarga qadoqlash lozim.

Agar ish holatlari bo'yicha begona mikrotolalarning dastlabki lokalizatsiyasini aniqlash zarur bo'lsa, unda kiyimning har bir predmeti ikki varaq qog'oz orasiga joylanadi-da, ehtiyotkorlik bilan qadoqlanadi.

Tolalarning yo'qolishiga olib keluvchi silkitish, tozalash, yuvish va boshqa harakatlarga yo'l qo'ymaslik lozim. Kiyim bilan bir vaqtda jabrlanuvchi yoki marhumning jasadidan, gumon qilinuvchidan tirnoqlari namunalar olin-

nishi lozim.

Pichoq va qotillik qurollarini tekshiruv va ekspertizaga yo'llash davomida totali obyektlarga — kiyim, dasturxon va hokazolarga tegish mumkin emas. Tolalar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan predmetlar — sovuq qurol va boshqalarni shunday qadoqlash lozimki, bunda undagi mavjud bo'lgan begona mikrotolalar tashish vaqtida yo'qolib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Totali obyektlarni taqqoslash tadqiqotlari maqsadidagi vazifalarni bajarish davomida barcha aшыoviy dalillar birinchi navbatda mikrotolalar ekspertizasiga yo'llanishi zarur. Chunki sud-tibbiy ekspertizasi o'tkazilganidan so'ng tolalar yo'qolishi yoki kiyimning taqqoslanuvchi predmetlari bir-biriga tegishi mumkin. Bu esa ekspertlar oldida qo'yilgan vazifaning noto'g'ri bajarilishi va noxolis xulosa chiqarilishiga olib keladi.

Totali materiallar va kiyimlarning yong'indan qolgan qoldiqlarini olishda, ayniqsa, alohida ehtiyotkorlik zarur. Mo'ta obyektlarning mumkin qadar butunligi saqlanishini ta'minlash maqsadida alanga yoki pechka ichidagi kul, yonish qoldiqlarini titkilash, undan kulning alohida qismlarini olish, yonmay qolgan kiyim qismlarini, metall furniturani olish tavsiya etilmaydi. Yong'in o'chog'i kurak yoki xokandoz yordamida imkon qadar ehtiyotlik bilan butunligicha olinib, tagi qattiq idishga olib o'tiladi.

Ekspert tekshirish uchun taqdim etilgan kiyimlarning kiyilgan yoki kiyilmagan, uning tozalangani, yuvilgani, kimyoviy tozalangani yoki saqlanishda bo'lgani to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi zarur. Totali materiallar ekspertizasining samaradorligi yuqoridagi qoidalarga amal qilgan holda ko'p jihatdan tergov organlari xodimlarining tezkor ishlashiga va tayyorgarligiga bog'liq.

**Farangez SAMADOVA,**

Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi,

**Malika KAMILOVA,**

Materiallar, aшыolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi yetakchi eksperti

☐ SO'RAGAN EDINGIZ

### DIPLOMLAR TENG KUCHGA EGA

— **O'zbekistonda xususiy universitetlarni tamomlagan talabalar maktablarda o'qituvchilik qilishi mumkinmi?**

— "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 31-moddasida nodavlat ta'lim tashkilotlarining o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshirishi belgilangan. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat beriladi.

Ya'ni, xususiy oliygohlarning diplomi davlat oliygohlari diplomi bilan teng kuchga egadir. Xususiy universitetlarni bitirib kelgan kadrlar maktabda o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin.

**Savolga "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi Nilufar PARDAYEVA javob berdi**

### XUSUSIY SEKTORDA HAM "DEKRET" GA CHIQA BO'LADI

— **6 oylik homiladorman. Xususiy do'konda sotuvchi bo'lib ishlayman. Do'kon egasidan menga "dekret" berishini so'ramoqchiman. Xususiy do'konda ham qonuniy tarzda "dekret" olsam bo'ladimi?**

— Agar siz qonuniy tarzda oxirgi 6 oydan beri ushbu do'konda ishlayotgan bo'lsangiz, unday holatda sizga mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochiladi va 5 ish kuni ichida undagi ma'lumotlar hududiy ambulator-poliklinikaning yoki tug'uruqxona muassasasining mas'ul xodimi tomonidan "Tibbiyot" axborot tizimiga kiritiladi. Bu esa sizga 4 oylik nafaqa tayinlanishini ta'minlaydi. Nafaqa xodimning farzandi tug'ilguniga qadar minimal iste'mol xarajatlarining 4 baravari miqdorida to'lanadi.

**Savolga "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi Qavomiddin XUJJATOV javob berdi**

## 4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

## FARG'ONA

Hali ham o'z orzuigingizdagi uyni olishga yoki qurishga o'ylanyapsizmi? Shu uyni olsam yoki shu joyga uy qursam, buzilishga tushmasmikan, deb ikkilanyapsizmi? Buni aniqlashning yo'li borligidan xabardormisiz?

## BUZILISHGA TUSHGAN HUDUDNI

## QANDAY ANIQLASH MUMKIN?



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qaroriga asosan Ko'chmas mulk buzilishga tushgan yoki tushmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlangan. Unga ko'ra, ariza beruvchi ma'lumotnoma olish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki YIDXP davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida ma'lumotnoma olish uchun arizalar YIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat'iy nazar, har kuni 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

Bunda arizalar ish vaqtidan keyin yoki dam olish va bayram kunlari tushganda, navbatdagi ish kuni arizalarning vakolatli organga tushgan va qabul qilingan kun hisoblanadi. Ariza beruvchi davlat xizmatlari markazlariga kelib murojaat etganda, uning so'rovnoma davlat xizmatlari markazlari xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng so'rovnoma real vaqt rejimida vakolatli organga elektron shaklda yuboriladi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda esa, so'rovnoma avtomatik tarzda vakolatli organga yuboriladi. Vakolatli organ so'rovnoma tushgan va to'lov amalga oshirilgan vaqtdan boshlab uch ish kuni mobaynida so'rovnomada ko'rsatilgan obyektning kadastr raqami orqali Kadastr agentligining axborot tizimi bilan integratsiya qilingan Qurilish vazirligining "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga kirib, real vaqt rejimida ko'chmas mulk obyektining joylashgan joyini aniqlaydi.

Vakolatli organ Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari bo'yicha obyekt buzilishga tushgan yoki tushmaganini o'rganadi. Shundan so'ng Reglamentga muvofiq QR-kod qo'yilgan ma'lumotnomani rasmiylashtiradi. Ma'lumotnoma davlat xizmatlari markazlariga (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoxud ariza beruvchiga (elektron shaklda murojaat etgan taqdirda) YIDXP orqali yuboriladi.

**Sardorbek TO'LQINJONOV,**

Oltiariq tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi

## TOSHKENT



Fuqaro P. Sultamuratovning Qibray tuman hokimligi tomonidan kompensatsiya to'lovi to'lanmayotganidan norozi bo'lib, amaliy yordam berishni so'rab qilgan murojaati Mirobod tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

## CHO'ZILGAN KOMPENSATSIYA TO'LANDI

O'rganish jarayonida P. Sultamuratovga xususiy mulk asosida tegishli bo'lgan Yashnobod (Qibray) tuman "Tashisti" mahallasida joylashgan uy-joy davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgani aniqlandi.

Toshkent viloyat hokimining 2018-yil 10-fevraldagi 128-sonli va Qibray tuman hokimining 2018-yil 2-fevraldagi 473-sonli qarorlariga asosan Qibray tumanidagi Tuzel va Yangiobod qishlog'idagi bir qator, jumladan 56,82 gektar yer maydoni davlat zaxira yerlari tarkibiga o'tkazilgani, Qibray tuman hokimining 2019-yil 14-martdagi 508-sonli qarori bilan Qibray tumanidagi "Tovkent tepa", "Tashisti", "Jarboshi" va "Ibrat" mahallalari hududida yashovchi fuqarolarning turar-joylari hamda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan noturar bino inshootlari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun ro'yxat asosida mulkdorlar hisobidan buzilishga ruxsat berilgani ma'lum bo'ldi.

"Universal bano" MChJ baholovchi tashkilot tomonidan 2023-yil 24-iyuldagi baholash hujjatlariga ko'ra, ariza muallifiga tegishli 50 kvadrat metr yer uchastkasining o'ri qoplanmagan kompensatsiya miqdori 95 million 790 ming 303 so'mni tashkil etgan.

Mazkur murojaat yuzasidan adliya bo'limi tomonidan P. Sultamuratovning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga to'lab berilmagan kompensatsiya pulini undirish haqida da'vo arizasi kiritildi. Da'vo arizasi sud tomonidan qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan buzilgan mulk egasiga 95 million 790 ming 303 so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

**Amir Shamsiqulov,**

Mirobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

## NAMANGAN

Chust tumanidagi "Do'zanda qurilish ta'mir" xususiy korxonasi rahbarining Chust tuman hokimligidan o'z haqini undirishni so'rab qilgan murojaati Mingbuloq tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

## YARIM MILLIARD SO'M TADBIRKOR FOYDASIGA UNDIRILDI

Aniqlanishicha, 2022-yil 4, 14, 16-mart kunlari xususiy korxonada va tuman hokimligi o'rtasida pudrat shartnomalari imzolangan. Mazkur shartnomalarga muvofiq, tadbirkor tumanidagi Baymoq mahallasi va 1-sektor binolari, Og'asary mahallasida joylashgan bolalar yozgi dam olish oromgohida 517 million 32 ming so'mlik joriy ta'mirlash ishlarini bajargan. Bu esa tomonlar o'rtasida tuzilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-fakturalar bilan o'z tasdig'ini topgan. Ammo Chust tuman hokimligi uning haqini o'z vaqtida to'lamagan.

Konstitutsiyamizning 55-moddasiga binoan, har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Qolaversa, Fuqarolik kodeksining 236-moddasida shartnomaviy majburiyatlar so'zsiz bajarilishi qayd etilgan.

Binobarin, tuman adliya bo'limi tomonidan xususiy korxonada manfaatini ko'zlab, Chust tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Natijada sud da'voni to'liq qanoatlantirib, Chust tuman hokimligidan tadbirkor foydasiga 517 million 32 ming so'm undirish yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilindi.

**Halimjon QOBILOV,**

Mingbuloq tuman adliya bo'limi boshlig'i



**SURXONDARYO**

## Otalikni sud tartibida belgilash qanday amalga oshiriladi?



Otalikning sud tartibida belgilanishi tartiblari Oila kodeksining 61-moddasida ko'rsatib o'tilgan. O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan bola tug'ilgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi, agarda bola otasining arizasi bo'lmasa, ushbu kodeksning 62-moddasida ko'rsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)ning yoxud bola kimning qaromog'ida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek, bola voyaga yetganidan keyin uning o'zi bergan arizaga muvofiq amalga oshiriladi. Otalikni belgilayotganda sud bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashagani va umumiy ro'zg'or yuritgani yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini yoki javobgarining otalikni tan olganini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarni e'tiborga oladi.

Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin. Otalikni belgilash to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin sud shu qaror nusxasini bola tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboradi.

**Mehriniso JO'RAYEVA,**  
Termiz shahar adliya bo'limi FHDY bo'limi  
1-toifali inspektori

**BUXORO**

Buxoro shahrida yashovchi fuqaro A. Xidirovning Buxoro viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan g'ayriqonuniy ravishda mehnat shartnomasi bekor qilinganidan norozi bo'lib qilgan murojaati viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.

## FUQARO ISHGA TIKLANDI



Murojaatni o'rganish jarayonida boshqarmaning 2023-yil 17-maydagi buyrug'iga asosan A. Xidirov bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishda qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgani aniqlandi. O'rganish natijalariga ko'ra fuqaroni ishga tiklash, majburiy progul kunlari uchun haq hamda ma'naviy zarar undirish to'g'risida fuqarolik ishlari bo'yicha Buxoro tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning 2023-yil 26-sentabrdagi qaroriga asosan A. Xidirovning buzilgan huquqlari tiklanib, uning foydasiga 19 million 133 ming 661 so'm moddiy va ma'naviy zarar undirish belgilandi.

**Halim FARMONOV,**  
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi  
mas'ul xodimi

**E'LONLAR**

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 25-sentabrdagi 276-um-son buyrug'i va o'z arizasiga asosan "MDP VERDAD" advokatlik byurosi advokati Parmonov Mannon Davronovichning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining 2023-yil 25-sentabrdagi 163-um-sonli buyrug'i hamda o'z arizasiga muvofiq, advokat Saidxonov Avaz Abdugahhorovichga 2022-yil 19-avgustda berilgan GZ 000168-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda 2022-yil 19-avgustda berilgan 165-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi tugatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2022-yil 19-dekabrda advokat Qodirov Xayrullo Maxamadsoliyevichga berilgan AN 000405-sonli, 2018-yil 21-dekabrda advokat Toshmatova Mamlakatxon Abdulxayevnaga berilgan AN 000116-sonli, 2018-yil 21-dekabrda advokat Komilova Muqaddas Abdulfaxzovnaga berilgan AN 000117-sonli litsenziyasi va advokatlik maqomi boshqarma boshlig'ining 2023-yil 25-sentabrdagi 240-um-son buyrug'iga binoan tiklandi.

Advokat Tuychiyeva Barchinoy Iskandarovna ta'lim muassasasiga o'qishga kirganligi munosabati bilan o'qish davriga, biroq ko'pi bilan uch yilga advokatlik maqomi to'xtatildi.

**SIRDARYO**

Konstitutsiyamizning 52-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.



Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ilova qilingan Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armanini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomning 7-bobi 29-bandi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qarori tahriri bilan quyidagicha belgilangan: "Umumta'lim muassasalari xodimlari, shu jumladan rahbar xodimlari faqat "1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan Jamg'armaning mavjud mablag'leri hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 50 foizigacha miqdorida mukofotlanishi mumkin".

Ushbu normadan kelib chiqib xulosa qilish mumkin, muassasada ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini tuzib, xodim sifatida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, ya'ni o'qituvchidan tortib rahbar xodimlar, texnik xodimlargacha, asosiy va o'rindosh bo'lishidan qat'i nazar, o'z mehnati bilan hissa qo'shayotgan har bir shaxs normada belgilangan bayram mukofotini olishga to'liq haqli hisoblanadi.

Biroq, aksariyat ta'lim muassasalari rahbarlarida bu qonuniy tartibga rioya qilmaslik holatlari kuzatilmog'ada. Ushbu holat esa yuqoridagi normani har bir rahbar o'z qarichi bilan sharhlashi natijasida kelib chiqmog'ada. Natijada korrupsiyaga sharoit yaratilmog'ada. Xodimlar tabaqalanishi natijasida bir-biriga nisbatan g'arazli his-tuyg'ular kuchayib, jamoadagi ahillikka putur yetmog'ada. Bu holat esa, o'z navbatida, o'quvchilarga bilim berishda o'zining negativ, ya'ni salbiy asoratini namoyon qilmog'ada.

Ushbu salbiy holatlarning yechimi sifatida masalaga sog'lom fikr doirasida yondashish, normativ-huquqiy hujjatlarga odilona o'zgartirishlar kiritish lozim. Yuqoridagi nizomning 29-bandi quyidagicha tahrirlanishi lozim. Ya'ni:

"Umumta'lim muassasalarining mehnat shartnomasi asosida ushbu muassasada faoliyat yuritayotgan asosiy va o'rindosh (Asosiy ish joyi umumta'lim muassasasi bo'lgan o'rindosh xodim bundan mustasno) barcha xodimlari, shu jumladan rahbar xodimlari faqat "1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan Jamg'armaning mavjud mablag'leri hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 50 foizigacha miqdorida mukofotlanishi lozim".

**Baxtiyor QO'SHBOQOV,**  
Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti

NIZOMGA O'ZGARTIRISH KIRITISH KORRUPSIYANING OLDINI OLADI

## 4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

## FARG'ONA

Hali ham o'z orzuigizdagi uyni olishga yoki qurishga o'ylanyapsizmi? Shu uyni olsam yoki shu joyga uy qursam, buzilishga tushmasmikan, deb ikkilanyapsizmi? Buni aniqlashning yo'li borligidan xabardormisiz?

## BUZILISHGA TUSHGAN HUDUDNI QANDAY ANIQLASH MUMKIN?



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprelda-gi 200-sonli qaroriga asosan Ko'chmas mulk buzilishga tushgan yoki tushmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlangan. Unga ko'ra, ariza beruvchi ma'lumotnoma olish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki YIDXP davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida ma'lumotnoma olish uchun arizalar YIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat'iy nazar, har kuni 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

Bunda arizalar ish vaqtidan keyin yoki dam olish va bayram kunlari tushganda, navbatdagi ish kuni arizalarning vakolatli organga tushgan va qabul qilingan kun hisoblanadi. Ariza beruvchi davlat xizmatlari markazlariga kelib murojaat etganda, uning so'rovnoma davlat xizmatlari markazlari xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng so'rovnoma real vaqt rejimida vakolatli organga elektron shaklda yuboriladi.

YIDXP orqali murojaat qilinganda esa, so'rovnoma avtomatik tarzda vakolatli organga yuboriladi. Vakolatli organ so'rovnoma tushgan va to'lov amalga oshirilgan vaqtdan boshlab uch ish kuni mobaynida so'rovnomada ko'rsatilgan obyektning kadastr raqami orqali Kadastr agentligining axborot tizimi bilan integratsiya qilingan Qurilish vazirligining "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimiga kirib, real vaqt rejimida ko'chmas mulk obyektining joylashgan joyini aniqlaydi.

Vakolatli organ Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari bo'yicha obyekt buzilishga tushgan yoki tushmaganini o'rganadi. Shundan so'ng Reglamentga muvofiq QR-kod qo'yilgan ma'lumotnomani rasmiylashtiradi. Ma'lumotnoma davlat xizmatlari markazlariga (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoxud ariza beruvchiga (elektron shaklda murojaat etgan taqdirda) YIDXP orqali yuboriladi.

**Sardorbek TO'LQINJONOV,**

Oltiariq tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi

## TOSHKENT



Fuqaro P. Sultamuratovning Qibray tuman hokimligi tomonidan kompensatsiya to'lovi to'lanmayotganidan norozi bo'lib, amaliy yordam berishni so'rab qilgan murojaati Mirobod tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

## CHO'ZILGAN KOMPENSATSIYA TO'LANDI

O'rganish jarayonida P. Sultamuratovga xususiy mulk asosida tegishli bo'lgan Yashnobod (Qibray) tuman "Tashisti" mahallasida joylashgan uy-joy davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgani aniqlandi.

Toshkent viloyat hokimining 2018-yil 10-fevraldagi 128-sonli va Qibray tuman hokimining 2018-yil 2-fevraldagi 473-sonli qarorlariga asosan Qibray tumanidagi Tuzel va Yangibod qishlog'ida bir qator, jumladan 56,82 gektar yer maydoni davlat zaxira yerlari tarkibiga o'tkazilgani, Qibray tuman hokimining 2019-yil 14-martdagi 508-sonli qarori bilan Qibray tumanidagi "Tovkent tepa", "Tashisti", "Jarboshi" va "Ibrat" mahallalari hududida yashovchi fuqarolarning turar-joylari hamda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan noturar bino inshootlari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun ro'yxat asosida mulkdorlar hisobidan buzishga ruxsat berilgani ma'lum bo'ldi.

"Universal bano" MChJ baholovchi tashkilot tomonidan 2023-yil 24-iyuldagi baholash hujjatlariga ko'ra, ariza muallifiga tegishli 50 kvadrat metr yer uchastkasining o'rni qoplanmagan kompensatsiya miqdori 95 million 790 ming 303 so'mni tashkil etgan.

Mazkur murojaat yuzasidan adliya bo'limi tomonidan P. Sultamuratovning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga to'lab berilmagan kompensatsiya pulini undirish haqida da'vo arizasi kiritildi. Da'vo arizasi sud tomonidan qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan buzilgan mulk egasiga 95 million 790 ming 303 so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

**Amir Shamsiqulov,**

Mirobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

## NAMANGAN

Chust tumanidagi "Do'zanda qurilish ta'mir" xususiy korxonasi rahbarining Chust tuman hokimligidan o'z haqini undirishni so'rab qilgan murojaati Mingbuloq tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

## YARIM MILLIARD SO'M TADBIRKOR FOYDASIGA UNDIRILDI

Aniqlanishicha, 2022-yil 4, 14, 16-mart kunlari xususiy korxonada va tuman hokimligi o'rtasida pudrat shartnomalari imzolangan. Mazkur shartnomalarga muvofiq, tadbirkor tumandagi Baymoq mahallasi va 1-sektor binolari, Og'asaray mahallasida joylashgan bolalar yozgi dam olish oromgohida 517 million 32 ming so'mlik joriy ta'mirlash ishlarini bajargan. Bu esa tomonlar o'rtasida tuzilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-fakturalar bilan o'z tasdig'ini topgan. Ammo Chust tuman hokimligi uning haqini o'z vaqtida to'lamagan.

Konstitutsiyamizning 55-moddasiga binoan, har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Qolaversa, Fuqarolik kodeksining 236-moddasida shartnomaviy majburiyatlar so'zsiz bajarilishi qayd etilgan.

Binobarin, tuman adliya bo'limi tomonidan xususiy korxonada manfaatini ko'zlab, Chust tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Natijada sud da'voni to'liq qanoatlantirib, Chust tuman hokimligidan tadbirkor foydasiga 517 million 32 ming so'm undirish yuzasidan hal qiluv qarori qabul qildi.

**Halimjon QOBILOV,**

Mingbuloq tuman adliya bo'limi boshlig'i



**SURXONDARYO**

## Otalikni sud tartibida belgilash qanday amalga oshiriladi?



Otalikning sud tartibida belgilanishi tartiblari Oila kodeksining 61-moddasida ko'rsatib o'tilgan. O'zaro nikohda bo'lmagan ota-onadan bola tug'ilgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi, agarda bola otasining arizasi bo'lmasa, ushbu kodeksning 62-moddasida ko'rsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)ning yoxud bola kimning qaramog'ida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek, bola voyaga yetganidan keyin uning o'zi bergan arizaga muvofiq amalga oshiriladi. Otalikni belgilayotganda sud bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashagani va umumiy ro'zg'or yuritgani yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini yoki javobgarning otalikni tan olganini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarni e'tiborga oladi.

Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan, lekin o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin. Otalikni belgilash to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin sud shu qaror nusxasini bola tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboradi.

**Mehriniso JO'RAYEVA,**  
Termiz shahar adliya bo'limi FHDY bo'limi  
1-toifali inspektori

**BUXORO**

Buxoro shahrida yashovchi fuqaro A. Xidirovning Buxoro viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan g'ayriqonuniy ravishda mehnat shartnomasi bekor qilinganidan norozi bo'lib qilgan murojaati viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.

## FUQARO ISHGA TIKLANDI



Murojaatni o'rganish jarayonida boshqarmaning 2023-yil 17-maydagi buyrug'iga asosan A. Xidirov bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishda qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgani aniqlandi. O'rganish natijalariga ko'ra fuqaroni ishga tiklash, majburiy pragul kunlari uchun haq hamda ma'naviy zarar undirish to'g'risida fuqarolik ishlari bo'yicha Buxoro tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning 2023-yil 26-sentabrdagi qaroriga asosan A. Xidirovning buzilgan huquqlari tiklanib, uning foydasiga 19 million 133 ming 661 so'm moddiy va ma'naviy zarar undirish belgilandi.

**Halim FARMONOV,**  
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi  
mas'ul xodimi

**E'LONLAR**

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 25-sentabrdagi 276-um-son buyrug'i va o'z arizasiga asosan "MDP VERDAD" advokatlik byurosi advokati Parmonov Mannon Davronovichning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining 2023-yil 25-sentabrdagi 163-um-sonli buyrug'i hamda o'z arizasiga muvofiq, advokat Saidxonov Avaz Abduqahhorovichga 2022-yil 19-avgustda berilgan GZ 000168-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda 2022-yil 19-avgustda berilgan 165-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi tugatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2022-yil 19-dekabrda advokat Qodirov Xayrullo Maxamadsoliyevichga berilgan AN 000405-sonli, 2018-yil 21-dekabrda advokat Toshmatova Mamlakatxon Abdulxayevnaga berilgan AN 000116-sonli, 2018-yil 21-dekabrda advokat Komilova Muqaddas Abduxafizovnaga berilgan AN 000117-sonli litsenziyasi va advokatlik maqomi boshqarma boshlig'ining 2023-yil 25-sentabrdagi 240-um-son buyrug'iga binoan tiklandi.

Advokat Tuychiyeva Barchinoy Iskandarovna ta'lim muassasasiga o'qishga kirganligi munosabati bilan o'qish davriga, biroq ko'pi bilan uch yilga advokatlik maqomi to'xtatildi.

**SIRDARYO**

Konstitutsiyamizning 52-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.



Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ilova qilingan Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomning 7-bobi 29-bandi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-sonli qarori tahriri bilan quyidagicha belgilangan: "Umumta'lim muassasalari xodimlari, shu jumladan rahbar xodimlari faqat "1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan Jamg'armaning mavjud mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 50 foizigacha miqdorida mukofotlanishi mumkin".

Ushbu normadan kelib chiqib xulosa qilish mumkin, muassasada ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini tuzib, xodim sifatida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar, ya'ni o'qituvchidan tortib rahbar xodimlar, texnik xodimlarga, asosiy va o'rindosh bo'lishidan qat'i nazar, o'z mehnati bilan hissa qo'shayotgan har bir shaxs normada belgilangan bayram mukofotini olishga to'liq haqli hisoblanadi.

Biroq, aksariyat ta'lim muassasalari rahbarlarida bu qonuniy tartibga rioya qilmaslik holatlari kuzatilmoqda. Ushbu holat esa yuqoridagi normani har bir rahbar o'z qarichi bilan sharhlashi natijasida kelib chiqmoqda. Natijada korrupsiyaga sharoit yaratilmoqda. Xodimlar tabaqalanishi natijasida bir-biriga nisbatan g'arazli his-tuyg'ular kuchayib, jamoadagi ahillikka putur yetmoqda. Bu holat esa, o'z navbatida, o'quvchilarga bilim berishda o'zining negativ, ya'ni salbiy asoratini namoyon qilmoqda.

Ushbu salbiy holatlarning yechimi sifatida masalaga sog'lom fikr doirasida yondashish, normativ-huquqiy hujjatlarga odilona o'zgartirishlar kiritish lozim. Yuqoridagi nizomning 29-bandi quyidagicha tahrirlanishi lozim. Ya'ni:

"Umumta'lim muassasalarining mehnat shartnomasi asosida ushbu muassasada faoliyat yuritayotgan asosiy va o'rindosh (Asosiy ish joyi umumta'lim muassasasi bo'lgan o'rindosh xodim bundan mustasno) barcha xodimlari, shu jumladan rahbar xodimlari faqat "1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan Jamg'armaning mavjud mablag'lari hisobidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 50 foizigacha miqdorida mukofotlanishi lozim".

**Baxtiyor QO'SHBOQOV,**  
Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuriskonsulti

NIZOMGA O'ZGARTIRISH KIRITISH KORRUPSIYANING OLDINI OLADI

## 6 TADBIR

Oliy sud, AOKA va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan trening "Ommaviy axborot vositalarida sud organlari faoliyatini mas'uliyatli yoritishda jurnalist va blogerlarning kasbiy mahoratini oshirish" mavzusiga bag'ishlandi.

## Uchinchi va to'rtinchi hokimiyat o'rtasidagi

# SO'Z



Oliy sudning Jamoatchilik bilan aloqalar markazi rahbari Aziz Abidov moderatorklik qilgan tadbirda Oliy sud raisining o'rinbosari Ikrom Muslimov, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning O'zbekistondagi missiyasining demokratiya va boshqaruv bo'yicha katta maslahatchisi Mamed Askerov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bo'lim boshlig'i Bohir Toshxo'jayev, Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi direktori Akramjon Fozilov, "Sud tizimini mustahkamlash" (JSSA) loyihasi rahbari Sonya Prostranlar mavzuga doir fikr-mulohazalarini bildirdi.

Shundan so'ng media-trenerlar – filologiya fanlari doktori Beruniy Alimov, media-tadqiqotchi Parvina Omonovalarning ma'ruzalari tinglandi. Sud faoliyatini mas'uliyatli yoritish: mohiyat va asosiy tushunchalar mavzusidagi interfaol taqdimotlar bilan tanishish imkoni bo'ldi.

So'z erkinligi, daxlsizlik qadriyati, jurnalist etikasi, barchasi o'ziga xos zalvorli tushunchalar. Ularga amal qilish undan ham yuksak mas'uliyatni talab etishi tabiiy. Bahs-munozaralarga boy o'tgan tadbirda, albatta, sud idoralari va jurnalistlar o'rtasida huquqiy davlat qurish maqsadi mushtarakligi ko'prigi borligi alohida ahamiyat kasb etdi.



### AXBOROT SIYOSATI KONSEPSIYASI

Sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, jamoatchilik bilan aloqalarni yanada mustahkamlash, aholining sudlar faoliyatiga doir axborot olish huquqini amalda ta'minlash maqsadida 2023–2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimining axborot siyosati konsepsiyasi qabul qilindi.

Mazkur konsepsiya Prezidentimizning 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiyaning ustuvor maqsadi sudlarning aholi bilan muloqotlar o'rnatishini samarali yo'lga qo'yish, sudlar faoliyatining shaffofligini

kuchaytirish, amalga oshirilayotgan sud islohotlarining mazmun-mohiyatini keng yoritish, sud hokimiyatining nufuzini yuksaltirish, aholining sudlarga bo'lgan ishonchini oshirish, keng jamoatchilikda sudlar faoliyati bo'yicha obyektiv va xolisona fikr-mulohazalar hamda qarashlarni shakllantirishga qaratilgan.

Unda sudlardagi axborot siyosatining joriy holati va mavjud muammolar, sudlar axborot siyosatining ustuvor yo'nalishlari va vazifalari, sudlarning axborot siyosatini amalga oshirish mexanizmlari, konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar o'z aksini topgan.

### BAHS-MUNOZARAGA SABAB BO'LGAN MAVZU

Xuddi ana shu mavzuni jurnalistlar uchun muammo va norozilik keltirib chiqarayotgan mavzu sifatida ta'kidlash mumkin. Xususan, yopiq sud-

larda ishtirok etish, ularni yoritishga talabgor bo'layotgan, qonunchilikka ko'ra, yopiq sud majlisini yoritishga ruxsat berilmagan ayrim jurnalistlarning iddaolari noto'g'ri ekaniga haqidagi bahs-munozaralar qizg'in va keskin bo'ldi.

Shuningdek, har bir ishni yoritishda jurnalistdan katta e'tibor, ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etilishi haqida fikr yuritildi. Hukum bilan qarorning farqini bilish, ajrim nima ekanini to'g'ri talqin qilish kerak. Jinoyat turini tavsiflashda ham ommaviy axborot vositasi xodimi xato qilmasligi kerak. Masalan, firibgarlik bilan tovlamachilik bir toifadagi ikki jinoyat ekanini bilish, ularni aralashtirib yuborishdan ehtiyot bo'lish talab etiladi. Bu haqda jurnalistlarga quyidagi eslatmalar berildi.

Firibgarlikning o'g'rilikdan farqi shundaki, firibgarlikda aybdor mulkni o'zganing egaligidan olib qo'ymaydi, balki jabrlanuvchining o'zi mulkni berishiga erishadi.

Tovlamachilikdan firibgarlik shu bilan farqlanadiki, tovlamachilikda jabrlanuvchi qo'rquv ta'sirida harakat qiladi, erki sindirilgan bo'ladi, firibgarlikda esa aldov natijasida jabrlanuvchining erki yanglishirilgan bo'ladi.

Masalan, o'zganing plastik kartasidan pul o'zlashtirishni jinoyatni sodir etish usuliga ko'ra quyidagicha farqlash mumkin. Ya'ni:

- talon-toraj yashirin ravishda sodir etilsa, o'g'rilik sifatida;
- shantaj yo'qorqitish orqali jabrlanuvchini o'z mulkini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish yo'li bilan sodir etilsa, tovlamachilik sifatida;

• aldash yoki ishonchini suliste'mol qilish yo'li bilan amalga oshirilsa, firibgarlik.

### TAHRIRGA MUHTOJ QONUNLARIMIZ BOR!

Axborot asrida yashayapmiz. Ammo axborot sohasidagi qonunlarimiz haligacha tahrirga muhtoj. Tadbirda axborot sohasidagi yangi qonunchilik: so'nggi islohotlar mazmun-mohiyati, jumladan, "Axborot kodeksi"ni tasdiqlash haqida"gi qonun va ilovadagi Axborot kodeksi loyihasi haqida ham alohida fikr yuritildi.

Qonun loyihasi 50 ta manfaatdor vazirlik va idoradan kelishuvdan o'tkazilgan. Qonunga ilova tarzida 4 ta bo'lim, 14 ta bob, 131 ta mod-dadan iborat bo'lgan Axborot kodeksi hozircha muhokamada.

Axborot kodeksida quyidagi sakkizta – "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Bolalarni ularni sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ochiqligi to'g'risida"gi, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonunlar o'zaro unifikatsiya qilish orqali tizimlashtirilgan.

Kodeks loyihasiga ko'ra, Konstitutsiyaga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Shu bilan birga, loyihada aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan jihatlar ham anchagina. Loyihani takomillashtirish yuzasidan ish olib borayotgan ishchi guruh ishi hali nihoyasiga yetgani yo'q. Demak, axborotni qonunga moslashtirishga aniqlik, tiniqlik kiritish jarayonlari davom etmoqda. Kodeksdagi ayrim jihatlar qonun normalari bilan mustahkamlashni taqozo etadi. Darvoqe, Axborot kodeksi tasdiqlansa, u mazkur sohada dunyodagi ilk kodeks hisoblanadi.

Uch kunlik treningda sud organlari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida mas'uliyatli yoritish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri

**Texnika taraqqiyoti zamonida yashayapmiz. Bir zumda dunyoning narigi chekkasidagi tanishimiz bilan gaplashishimiz mumkin. Uyda o'tirib turli to'lovlarni amalga oshirish muammo emas. Axborot texnologiyalari tufayli ta'bir joiz bo'lsa, mushkulimiz oson, uzog'imiz yaqin bo'lmoqda. Ammo ana shu imkoniyatlardan noto'g'ri foydalanib, odamlarni chuv tushirayotganlar ham afsuski, uchrab turibdi.**



## FIRIBGARNING SIRI OCHILDI

Toshkent viloyatida yashovchi xavfli retsdivit F.S. aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan tekni daromad orttirish maqsadida "Telegram"dagi kanal orqali ijara-ga dala hovlisi borligini yozib, oldindan 500 ming so'm to'lash lozimligini bildiradi. Qo'ng'iroq qilgan fuqaroga o'zining plastik raqamini beradi. Mijoz esa aytilgan mablag'ni unga o'tkazib bergach, telefonini o'chiradi. Dam olishni mo'ljallagan fuqaro esa unga qayta-qayta telefon qiladi. Biroq qo'ng'iroqlari javobsiz qoladi.

Ma'lum vaqt o'tgach, "OLX" ijtimoiy saytiga dala hovlisini ijaraga berishi haqida yana e'lon joylashtiradi. Ushbu e'lon bo'yicha murojaat qilgan fuqaroga:

- Bir sutkaga oldindan 500 ming so'm to'lasangiz dachani sizga band qilaman, pulni oldindan plastik kartamga o'tkazib berasiz, - deydi.

Mijoz aytilgan mablag'ni uning plastik kartasiga o'tkazib ber-

gach, "dacha" egasining telefoni yana o'chiriladi. Bu mijoz ham al-dangan edi.

Firibgar jinoiy harakatlarini davom ettirib, "OLX.uz" saytiga aslida mavjud bo'lmagan dala hovlisini band qilib qo'yish uchun oldindan 100 ming so'm to'lashi mumkinligi haqida e'lon joylashtiradi. Jabrlanuvchi aytilgan pulni plastik kartasiga o'tkazgandan keyin yana telefon o'chiriladi.

Ustasi farang firibgar tekin pul topishning hadisini olib, yana o'sha saytdagi e'lonida dala hovlisini ijaraga bermoqchi ekanini bildirib, ikki kunlik ijara haqi - (2 million 300 ming so'm)ni plastik kartaga o'tkazsa joyni band qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu mijoz ham uning tuzog'iga tushib, aytilgan summani to'laydi. Pul tushgandan keyin yana o'sha eski ahvol...


Olg'irning ishtahasi yanada ochiladi. U endi kattaroq "reja"larni tuzadi. "Telegram"da "Oilaga xonadon bor" deb xabar qoldiradi. Ushbu e'lon bo'yicha fuqaro u bilan uchrashadi.

- Yaxshi, - deydi o'zaro muloqotda F.S. mijozga, - Chilonzorda kvartiram bor. Oyiga 300 AQSh dollari berasiz. Lekin hozir uyni o'zgina remont qilishim zarur. Shuning uchun oldindan 100 AQSh dollari berishingiz kerak. Aytilgan pulni olgandan so'ng uning yana "qorasi o'chadi".

Xullas, u ancha-muncha sodda fuqarolarni dala hovliga "chorlaydi". Yaxshi niyatda, dam olish maqsadida yo'lga chiqqanlar aytilgan manzilni topa olmay, horib-charchab, ming pushaymonlar bilan ortga qaytishadi. 21 nafar fuqaroni "dala hovlim bor", "kvartiram bor", deya chuv tushirgan firibgarning siri ochildi va oxir-oqibatda sudning qora kursisiga o'tirdi.

Sudning hukmiga ko'ra, unga Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan 5 yil 1 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

**Shohdiyot SHERMATOV,**  
jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining sudyasi



## SHOSHMA-SHOSHAR INSPEKTOR tuzgan noqonuniy bayonnoma

# SUDDA BEKOR BO'LDI

**LIB YHXB YPX xodimlari qo'qonlik Sh. Umarovni "Damas" rusumli avtomashinasini shaharning Furqat ko'chasida boshqarib borayotgan vaqtda to'xtatishadi. So'ng undan hujjatlarini so'rab, qarzdorlik bo'yicha tadbir o'tkazilayotganini aytishadi.**

O'sha paytda Shuhratjonning otasi Muhammadsoli aka shifoxonada og'ir ahvolda yotgandi. Shu bois, haydovchi yigitning asablari tarang, tuni bilan otasiga qarab uxlamagani sababli ko'zlari ham qizarib turgandi. Bu holatni ko'rgan YHXB YPX xodimlari esa uni spirtli ichimlik ichganlikda ayblashadi. U shifoxonadagi vaziyatni qanchalik tushuntirib, shoshib turganini aytmasin, foydasi bo'lmaydi.

- Ha, ichib olganman, - deydi Sh. Umarov gapga tushunmagan inspektorlarga achchiq qilib.

Aslida Shuhratjon spirtli ichimlik iste'mol qilmagandi. Shunga qaramay, xodimlar undan shahardagi Farg'ona viloyat 2-sonli narkologiya dispanseriga borishni talab qilishadi. Dispanser shifokori esa haydovchining ichgan yoki ichmaganini belgilangan tartibda tekshirib ko'rmasdan, spirtli ichimlik

iste'mol qilgani to'g'risida bayonnoma tuzadi.

Amaldagi tartibga binoan, transport vositalari haydovchilarining alkogolli ichimliklar ta'siridan mast holatda ekanini aniqlash DYHXX xodimi tomonidan texnik vosita yordamida qoidabuzarlik yuz bergan joyning o'zida amalga oshiriladi. Transport vositasi haydovchisi texnik vosita yordamida tekshiruvdan o'tishdan bosh tortgan yoxud unda texnik vosita orqali tekshiruv natijalariga e'tiroz mavjud bo'lgan hollarda DYHXX xodimi transport vositasini boshqarayotgan shaxsning mast holatda ekanini aniqlash maqsadida tibbiy tekshiruvdan o'tkazish uchun tuman yoki shahar davolash-profilaktika muassasalariga olib borishi kerak. Lekin Sh. Umarovning mastlik holatini tekshiruvdan o'tkazishda qonuniy talablar qo'pol ravishda buzilgan. Qon yoki boshqa namunalar tekshirilmagan. Shunga qaramay, inspektor M. Qahhorov tomonidan shoshma-shosharlik bilan unga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 131-moddasi birinchi qismi asosida ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan. Ya'ni, mazkur bayonnomaning tuzishda xo'islar va guvohlar ishtirok etmagan, bayonnomaga nisbatan huquqbuzarning e'tirozlari yozilmagan. Qolaversa, haydovchiga nisbatan to'plangan hujjatlarga YHX xodimi tomonidan kuzatuv kamerasi (body camera)dan foydalanilgan tasdiqlovchi video tasvirlar ilova qilinmagan.

Yangi Konstitutsiyamizning 28-moddasida aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi, agar shaxsning o'z aybini tan olgani unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi ta'kidlangan.

Darhaqiqat, sudda Sh. Umarovning huquqbuzarlik sodir etgani o'z tasdig'ini topmadi. Shu bois, jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasi 1-bandiga asosan Sh. Umarovga nisbatan kodeksning 131-moddasi birinchi qismi bilan yuritilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni tugatish va uni javobgarlikdan ozod etish yuzasidan qaror qabul qilidi.

**Nodirjon KIMSANOV,**  
jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudining sudyasi

## E'LONLAR

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan jori yilning 21-sentabr kuni "Adolat kuchda himoya" advokatlik byurosi advokati Alimov Rustam Bekmirzayevichga viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 29-dekabrda berilgan KS 000123-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 11-sentabrdagi 267-um-sonli buyruqi

bilan "ADVOKAT NOSIRHON" advokatlik firmasi advokati Sultanova Maxsuda Rustamovnaga boshqarma tomonidan 2018-yil 24-dekabrda berilgan TS 000118-raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi advokat vafot etganligi sababli tugatildi.

Farg'ona viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 18-sentabrdagi qaroriga asosan Qo'qon shahridagi "Haqiqat tarafdori" ad-

vokatlar hay'ati advokati Xakimov Feruz G'ulomovichga berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning (FE № 000165) amal qilishi hamda advokatlik maqomi 2023-yilning 7-noyabr kuniga qadar to'xtatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 20-sentabrdagi 237-um-son buyru-g'iga asosan advokat Tyuneyev Vsevolod Zavenovichga 2018-yil 21-dekabrda beril-

gan AN 000108 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya, Ketmonov Iqboliddin Xomidjonovichga 2023-yil 17-aprelda berilgan L-7066211 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya, advokat Karimova Muxabbatxon Axmatjanovnaga 2018-yil 17-dekabrda berilgan AN 000031 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

## 8 ADLIYA FAXRIYLARI

“Har bir buyuk shaxs ortida ayol bor!” degan mashhur ibora barchamizga yaxshi tanish. Har bir xayrli ish va xosiyatli amal ortida ham albatta, ayol bor, degan haqiqatni ham bilamiz. Chunki oila qo'rg'oni-ning mustahkamligi, mehrga, farog'atga to'liqligi, farzandlar kamoli va baxti, erkaklarning tinchligi, ko'ngil xotirjamligi, olam go'zalligi, nafosat va muhabbat bo'stoni shubhasiz, Ayol bilan, Ayolga bog'liq.

## Yaxshiyam

Siz borsiz...



Ayol nafaqat oilada eng muhim shaxs, balki jamiyatning ham barometri. Bugungi qahramonlarimiz oilada, davlat va jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishga erishgan, “Yaxshiyam Siz borsiz...” degan iqrorga arziydigan, yuksak hurmat va ehtiromga sazovor bo'lgan, Vatanga daxldor ayollardan.

SUD KOTIBALIGIDAN  
VILOYAT SUDI RAISI  
O'RINBOSARIGACHA...

Malika Fozilova 1948-yilda qo'shni Tojikistonning Regar shahrida tug'ilgan. Ammo o'qish, izlanishlari, orzu-umidlari, eng yaxshi xotiralari, tajribali huquqshunos darajasiga ko'tarilish yo'lidagi mashaqqatlari, ishdagi muvaffaqiyatlari, bir so'z bilan aytganda, butun umr topganlari va yo'qotganlari, barchasi O'zbekiston bilan bog'liq.

1973-yil Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tugatgan M. Fozilova mehnat faoliyatini 1967-yilda Buxoro shahar sudida kotibalikdan boshlagan. U shahar sudi kotibaligidan viloyat sudi raisi o'rinbosari darajasigacha bo'lgan mashaqqatli va sharafli yo'lni bosib o'tgan tajribali yurist. O'tgan yillar, 41 yillik ish tajribasi Malika Fozilova uchun o'qish, izlanish, qonun tilini, sirlarini puxta egallash yillari bo'ldi.

Uning mehnat faoliyati mundarijasini o'qib, sud-huquq sohasidagi har bir qadami muvaffaqiyatli va omadli kelgani, huquqshunoslik olamida o'z o'rnini topishdagi harakatlari, izlanishlari zoye ketmaganini ko'rish mumkin. Qahramonimiz Buxoro viloyat Advokatlar kollegiyasida advokat, yetmishinchi yillarning boshidan oxirigacha esa adliya tizimida mehnat qildi. Buxoro viloyat ijroiya qo'mitasi adliya bo'limi katta maslahatchisidan viloyat ijroiya qo'mitasi adliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, o'ziga ishonch, kasbiga mehr va sadoqat, ma'rifat va ma'naviyat unga qanot bo'ldi, hamnafas bo'ldi. Oilada, jamiyatda o'ziga xos mavqeni egallashida turmush o'rtog'i, huquqshunos olim Ahmadjon Fozilovning beminnat xizmatlari ko'pligini ham alohida ta'kidlashni istardik. Garchi, domla bugun oramizda yo'q bo'lsalar-da, u kishining nomi, qoldirgan yaxshiliklari shogirdlari, do'stlari, farzandlari, barcha yaqinlari qalbida yashaydi. Malika opaning haqiqiy malikalardek yurishlari, go'zal rafiqalik, jasoratli sudyalik, samimiy do'stlik, mehribon onalik, benazir ustozlik martabalariga erishishida Ahmadjon akaning munosib hissasi bor.

Malika opa Navoiy viloyat sudi raisining o'rinbosari sifatida 6 yil

faoliyat yuritdi. Sudga kelgan har bir ish, har bir shaxsga, har bir holatga, har bir detalga alohida e'tibor berdi. Bu dargohdan hech kim norizo bo'lib ketishiga yo'l qo'ymaslikka, adolat va haqiqatning qaror topishiga harakat qildi, inson qadri, sha'ni va hayotiga daxldor bo'lgan har bir ishga bor bilim va tajribasini sarfladi. Shuning uchun ham Malika Abdullayevna sudda ishini ko'rayotgan shaxslarning ko'nglida sudlov hay'atiga, sud-huquq tizimiga ichki ishonch, adolat qaror topishiga umid katta bo'ldi. Har bir qarori bilan hurmat va e'tibor topgan sudyaning ishini xolis, adolat tarzusida ko'rishga o'rgangan bo'is, hatto o'ziga ishongan ba'zi da'vogar amaldorlar ham qonun oldida javob berishga majbur bo'lar-di, qonun hamma-ga barobarligini tan olardi.

M. Fozilova sud tizimida uzoq yillar samarali mehnat qildi. Sudyalik nomiga dog' tushirmadi. Yuksak obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. Mustaqillik yillarining boshida ma'lum muddat Navoiydagi yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lgan “Qizilqumsement” qo'shma korxonasida yuridik bo'lim boshlig'i sifatida xizmat qildi. Katta korxonaning yuksalishida, xaridorir mahsulotlari bilan xalqaro savdo pavilonlaridan munosib o'rin egallashida yuridik bo'limning, shaxsan M. Fozilovning katta xizmati borligini hozirgacha minnatdor tilga olishadi.

Malika opa huquqshunoslik uchun tug'ilgan. Bu sohaning har bir tizimi o'ziga uchun qadri, aziz. Elimiz uchun xizmat qilishni katta baxt va saodat deb bilgan M. Fozilova Navoiy shahar 1-sonli davlat notarial idorasi davlat notariusi vazifasida ishlagan qator yillarda ham xalqning xizmatida bo'ldi. Fuqarolarning huquqiy bilim va madaniyatini oshirishga o'z hissasini qo'shdi.

O'z kasbidan baxt topgan, o'z umridan saodat topgan bu baxtiyor ayolga qutlug' yosh muborak bo'lsin, deymiz. Oila va yaqinlar, do'stlar va shogirdlar davrasida hamisha e'zoz va ehtiromda yashash nasib etsin, Malika opa!

DARAXT  
BIR JOYDA  
KO'KARADI...

Gulbuvi Rasulova bilan bir necha yil avval Navoiy shahrida bir marta ko'rishganmiz xolos. Bu ayolni Paxtachi tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudiri deb tanishtirishgandi. Dilkash suhbatdosh, chehrasi ochiq, biroz hazilkash, samimiyligi yuz yillik qadrdonlardek, kamtarinligi, oddiy qishloq ayollariga xos odmiyligi bu ayolning tashrif qog'ozini edi go'yo. Oradan ancha yillar o'tdi. Ammo Gulbuvi opa tasavvurimda hamon o'sha oddiy va samimiy chehrasi bilan gavdalanadi.

Xalqimizda “Daraxt bir joyda ko'karadi” degan ajoyib hikmat bor. Bu haqiqat G. Rasulovanning hayoti va faoliyatiga daxldor. Gulbuvi opa 1982-yilda Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tugatgan. Huquq tizimidagi faoliyatini esa 1973-yilda Paxtachi tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudirligidan boshlagan. Va 2009-yilgacha ana shu tizimda, xuddi shu lavozimda halol mehnat qildi. Paxtachi tumani Samarqand viloyatining katta tumanlaridan biri. Bir joyda, bir lavozimda 36 yil xizmat qilish, turli toifadagi, turli kayfiyatdagi odamlar, turli rahbarlar bilan ishlashning o'zi bo'lmaydi. Bunday mas'uliyatli va murakkab vazifada beka-mu ko'st, obro' bilan ishlash har kimga ham nasib etavermaydi.

Odamlar “ZAGS” mudiraligi juda oson ish deb o'ylashadi. Go'yoki ularning faoliyati faqat to'yu tomoshalar, quvonchli kunlarga guvoh bo'lishdan iboratdek. Ammo o'zini baxtsiz sezgan bir ayol ko'zida yoshi bilan nikohni bekor qilishini so'rab huzuriga kelganda uni yupatish, unga to'g'ri yo'l ko'rsatishning ham o'ziga yarasha mashaqqati bor. Gulbuvi Rasulova mehnat faoliyati davomida qancha-qancha baxtli oilalarning tantanali, quvonchli kunlariga sherik bo'ldi, shu bilan birga turmushning ayrim dovonlaridan o'ta olmay, oilani barbad qilmoqchi bo'lib, FHDY idorasiga kelganlarga to'g'ri yo'l ko'rsatdi, maslahatini ayamadi, ajralish so'nggi bekat emasligini tushuntira oldi, guldek oilalarni asrab qoldi.

Gulbuvi opa farzandlari, nabiralari qanchalik yaxshi ko'rsa, boshqalarning bolalariga ham shuni ravo ko'radi. Har bir farzand o'ziga bog'ida, ota-ona mehrining soyasida o'sishi kerakligini hozir ham mahallada, maktabda yoki to'y-ma'rakalarda uchrashib qolganda qaynonalarga, yoshlarga qayta-qayta takrorlaydi. Oila muqaddas degan ulug' qadriyatni ko'pchilikning qalbiga singdira olgan qahramonimiz har qancha faxrga munosib. Sizdek munis va mo'tabar ayollarga ta'zim. Yaxshiyam, Siz borsiz...

Marusa HOILOVA,  
“Inson va qonun” muxbiri

INSON  
va qonunMUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI“Adolat” milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan

ISSN 2016-7477



\*7203099808\*

## TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza ErgashevaBosh  
muharrirAsliddin  
ALIMARDONTahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqdir  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.Navbatchi  
Marusa Hosilova  
Sahifalovchi-dizayner  
Jasur Tojiyboev

## Nashr indeksi: 137

“Inson va qonun” gazetasi hamda “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida “KOLORPAK” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3500  
Buyurtma – 2983Toshirish vaqti – 19.00  
Toshirildi – 19.00

## MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5